



KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING TARKIBIY KOMPONENTLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLAR

Isaboyeva Dilyora,

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1667>

MAQOLA HAQIDA/O STATIYA

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 14

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kommunikativ kompetensiya, integrativ metodlar, intellektual komponent, motivatsion komponent, faoliyat komponenti, reflektiv komponent, integratsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida integrativ metodlardan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari tahlil qilindi. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari — motivatsion, intellektual, faoliyat va reflektiv komponentlar ilmiy jihatdan yoritilib, ularni shakllantirishda integrativ yondashuvlarning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarning o'zaro alohida e'tiborga olinadi. Integrativ yondashuvlar o'quv jarayonini nafaqat bilim berishga, balki shaxsning mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va o'z fikrini aniq hamda mantiqiy ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bundan tashqari, integratsion ta'lim muhitida o'quvchilarning ijodiy faolligi va kommunikativ tashabbuskorligi ortib borishi, ularning ijtimoiy va akademik muloqotga kirishish salohiyati kengayishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyaning har bir komponenti o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlantirilganda ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi hamda o'quvchilarda barqaror kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi. Shu bois integrativ metodlar zamonaviy pedagogik amaliyotda kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishning muhim didaktik vositasi sifatida qaraladi va ta'lim sifatini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 14

KEYWORDS

communicative competence, integrative methods, intellectual component, motivational component, activity component, reflective component, integration

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical foundations for improving the effectiveness of integrative methods in developing students' communicative skills. The main components of communicative competence—motivational, intellectual, activity-based, and reflective—are scientifically examined, and the pedagogical significance of integrative approaches in their formation is substantiated. The article also pays special attention to the role of modern educational technologies and interactive methods in the development of communicative competence. Integrative approaches direct the educational process not only to impart knowledge, but also to develop the individual's ability to think independently, work collaboratively, and express his or her thoughts clearly and logically. In addition, it is emphasized that in an integrated educational environment, students' creative activity and communicative initiative increase, and their potential for social and academic communication expands. The results of the study show that when each component of communicative competence is developed in an interconnected manner, educational effectiveness increases significantly and students develop stable communicative skills. Therefore, integrative methods are considered an important didactic tool for the formation of communicative competence in modern pedagogical practice and are of urgent importance in improving the quality of education.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim insonning butun hayoti davomida kasbiy mahoratning yuqori bosqichlariga izchil rivojlanib borishini ta'minlovchi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqsadga erishish uchun har qanday ta'lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat kasbiy kompetensiyalarga, balki kommunikativ kompetensiyaga ham ega bo'lishi zarur. Ushbu kompetensiyaning dastlabki asoslari maktab ta'limi jarayonida shakllanadi va keyinchalik oliy ta'lim bosqichida ta'limning uzviyligi hamda talabning kasbiy yo'nalishi asosida yanada rivojlantiriladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning rivojlanishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur yondashuvlar faol ta'lim, o'quvchi faolligini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga asoslanadi. Natijada o'quvchilarning o'zaro muloqoti, hamkorlik faoliyati va kommunikativ ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

An'anaviy, o'qituvchi markazidagi ta'lim modelidan o'quvchi markazidagi ta'lim muhitiga o'tish esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarga mustaqil fikrlash, erkin muloqotga kirishish hamda kommunikativ qobiliyatlarini amaliy faoliyat jarayonida muntazam rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Mazkur zamonaviy yondashuvlarni o'quv dasturlariga integratsiya qilish nafaqat an'anaviy ta'lim metodlarida kuzatiladigan ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi, balki zamonaviy ta'lim tizimining o'zgaruvchan ehtiyojlariga ham mos keladi. Raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi va global axborot makonining rivojlanishi sharoitida samarali kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish tobora muhim talabga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, moslashuvchan pedagogik strategiyalarni qo'llash

hamda qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va turli ijtimoiy-madaniy muhitlarga moslasha olishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda integrativ yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini asoslash masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar kommunikativ kompetensiyaning ko'p komponentli, dinamik va rivojlanuvchi tizim sifatida talqin etadi.

M.N. Vyatuyutnev kommunikativ yondashuvni til o'qitish jarayonining markaziy tamoyili sifatida ko'rib, kommunikativ kompetensiyaning real muloqot sharoitida til vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanish qobiliyati bilan izohlaydi. Uning fikricha, kommunikativ yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki ijtimoiy-madaniy moslashuv ko'nikmalarini ham shakllantiradi, bu esa zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [1, 40-b.].

D. R. Garrison va T. Anderson o'zlarining tadqiqotlarida elektron ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini tahlil qilib, onlayn o'qitish jarayonida interaktivlik va hamkorlikni ta'minlash muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, raqamli ta'lim muhitida kommunikatsiya faqat axborot almashinuvi emas, balki bilimni birgalikda qurish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi [2, p. 58].

D. W. Johnson va R. T. Johnsonlar hamkorlikda o'qitish nazariyasini ishlab chiqib, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishida ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning ahamiyatini asoslab beradilar. Ularning tadqiqotlari guruhli faoliyat o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini, mas'uliyatni va o'zaro yordamni rivojlantirishini ko'rsatadi [3, p. 370].

C. Kivunja esa XXI asr pedagogikasi doirasida kommunikativ kompetensiyani innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan bog'lab, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy ta'lim tizimi integrativ va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi lozim [4, p. 42].

Shuningdek, U. Yigitaliyevich va D. Isaboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda integrativ o'qitish jarayonida case-study (vaziyatli topshiriqlar) metodining qo'llanilishi talabalarning mantiqiy fikrlash va kommunikativ faolligini oshirishi qayd etiladi. Mualliflar ushbu metod o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkonini berishini ta'kidlaydilar [5, 1290-b.].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvlar o'quv jarayonida motivatsion, intellektual, faoliyat va refleksiv komponentlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlab, shaxsning kommunikativ salohiyatini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va integrativ yondashuvlarning samaradorligini aniqlashda nazariy va empirik metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogik, psixologik va lingvodidaktik adabiyotlar tahlili, umumlashtirish va tizimlashtirish tashkil etdi. Bu orqali kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Empirik bosqichda kuzatish, suhbat va pedagogik tajriba-sinov metodlari qo'llanilib, o'quv jarayonida integrativ metodlarning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida baholandi hamda integrativ yondashuvlarning samaradorligi aniqlashtirildi.

Natijalar. Talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish masalasi uzoq yillar davomida pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. An'anaviy yondashuvlarda mazkur ko'nikmalar asosan reproduktiv ta'lim, ya'ni yodlashga asoslangan hamda o'qituvchi markazidagi metodlar orqali rivojlantirilgan. Biroq bunday metodlarning o'quvchilarda faol ishtirok, mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi cheklangan imkoniyatlari pedagoglarni yanada samarali, dinamik va interfaol pedagogik strategiyalarni izlashga undadi. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda hamkorlikda o'qitish, ta'lim jarayoniga texnologiyalarni integratsiya qilish hamda interfaol metodlardan foydalanish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omillari sifatida alohida e'tirof etilmoqda.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish, axborotni aniq ifodalash hamda qabul qilingan ma'lumotni mazmunan to'g'ri anglash va talqin etish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya tarkibiga nafaqat verbal nutq vositalari, balki nonverbal

muloqot elementlari ham kiradi. Shu bois kommunikativ kompetensiya insonning ijtimoiylashuvi, shaxslararo munosabatlarni shakllantirishi va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishida muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi kundalik ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda ta'lim jarayonida ham izchil rivojlanadi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida kommunikativ faoliyatning mazmuni va shakllari sezilarli darajada yangilanmoqda. An'anaviy yuzma-yuz muloqot bilan bir qatorda elektron pochta, videokonferensiya, virtual platformalar va onlayn muloqot vositalari kommunikativ jarayonning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Natijada shaxsdan nafaqat nutqiy savodxonlik, balki raqamli kommunikatsiya madaniyatiga oid ko'nikmalarni ham egallash talab etilmoqda.


Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning axborot almashinuvi, hamkorlikdagi faoliyati va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ metodlarning samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Integrativ yondashuv turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lagan holda o'quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi va shu orqali kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy komponentlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Kommunikativ kompetensiya murakkab ko'p komponentli tuzilma sifatida nafaqat lingvistik bilimlarni, balki intellektual, motivatsion, faoliyat va refleksiv jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, integrativ metodlar aynan ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, fanlararo integratsiya o'quvchilarning intellektual faolligini oshirib, axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va mantiqiy bog'lash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kommunikativ faoliyatning intellektual asosini mustahkamlaydi.

Shuningdek, integrativ ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar o'quvchilarning muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi, ularning motivatsion sohasini faollashtiradi hamda kommunikativ faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Amaliy topshiriqlar, guruhli ishlar va muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida o'quvchilar kommunikativ ko'nikmalarni real faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa faoliyat komponentining rivojlanishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, integrativ metodlar refleksiv jarayonlarni ham faollashtiradi, chunki o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va xatolar ustida ishlash orqali o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, integrativ metodlar kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida baholanadi.



M.N. Vyatutnev, I.N. Grishko, D. Izarenkov, G.S. Sagdeeva, M.A. Xolodnaya kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri intellektual komponent hisoblanadi. Ushbu komponent shaxsning kommunikativ va kognitiv faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi bir qator aqliy ko'nikma va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Jumladan, u axborotni izlash, qabul qilish va qayta ishlash, shuningdek, ma'lumotlarni jadval, sxema va boshqa vizual shakllarda ifodalash ko'nikmalarini qamrab oladi. Bundan tashqari, axborotni tahlil qilish va talqin etish, uni turli ifoda shakllari o'rtasida o'zgartirish, muhim va ikkinchi darajali jihatlarni ajratish, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik va munosabatlarni aniqlash kabi intellektual faoliyat elementlari ham ushbu komponent tarkibiga kiradi.

O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ metodlarning samaradorligini oshirish muammosi doirasida shuni ta'kidlash mumkinki, turli ilmiy yondashuvlar asosida kommunikativ kompetensiya aniq va tizimli tuzilishga ega bo'lgan ko'p komponentli pedagogik kategoriya sifatida talqin etiladi. Uning asosiy tarkibiy qismlarini motivatsion, intellektual, faoliyat (operatsion) va refleksiv komponentlar tashkil etib, ular kompetensiyaning mazmun-mohiyatini turli jihatlardan yoritadi hamda birgalikda yaxlit tizimni hosil qiladi.

Mazkur tuzilma integrativ ta'lim yondashuvlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida kommunikativ kompetensiyaning har bir komponentini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini samarali shakllantirishda integrativ metodlarning didaktik imkoniyatlarini to'liq ochib berish

maqsadida kommunikativ kompetensiyaning har bir tarkibiy komponentini alohida va chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonning samaradorligi o'quvchilarda motivatsion, intellektual, faoliyat (operatsion) va refleksiv kompetentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, integrativ yondashuvlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, integrativ ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlikni ta'minlash o'quvchilarda bilimlarni fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qilish imkonini beradi. Bu esa ularning fikrlash jarayonini faollashtirib, axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada kommunikativ faoliyatning intellektual asosi mustahkamlanadi va o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarda o'z fikrini aniq va asosli ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, integrativ yondashuvlar o'quvchilarning motivatsion sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyiha asosida o'qitish hamda hamkorlikda bajariladigan topshiriqlar o'quvchilarda muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi. Bunday sharoitda o'quvchilar faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki faol kommunikativ jarayon ishtirokchisiga aylanadilar. Bu esa ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ichki motivatsiyani mustahkamlaydi.

Faoliyat (operatsion) komponentning rivojlanishi integrativ yondashuvlar asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Guruhli ishlar, rolli o'yinlar, muammoli topshiriqlar va real hayotiy kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Bunday faoliyat jarayonida ular nafaqat til vositalaridan samarali foydalanishni, balki hamkorlik qilish, murosaga kelish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вятютнев, М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах / М.Н. Вятютнев // Русский язык за рубежом. – 1977. – № 6. – С. 38-45
2. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). E-Learning in the 21st Century: A Framework for Research and Practice. Routledge.
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365-379.
4. Kivunja, C. (2014). Innovative Pedagogies in Higher Education to Become Effective Teachers of 21st Century Skills: Unpacking the Learning and Innovations Skills Domain of the New Learning Paradigm. *International Journal of Higher Education*, 3(4), 37-48.
5. Yigitaliyevich, Akbarov U., and Isaboyeva Dilyoraxon. "Some Educational Case Assignments That Are Used to Teach Subjects of Elements of Functional Analysis." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 12, 23 Dec. 2022, pp. 1288-1297.
6. Savignon, S. J. (2018). *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. New York: McGraw-Hill.
7. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1-47.

Refleksiv komponent esa o'quvchilarning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchilar o'z kommunikativ harakatlarini tahlil qilib borish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi va kommunikativ kompetensiyaning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari integrativ yondashuvlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonini faollashtirib, o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy muloqot madaniyatini va kasbiy kommunikativ tayyorgarlikni ham shakllantiradi. Shu sababli integrativ metodlarni zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llash kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkin, kommunikativ kompetensiya zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. U motivatsion, intellektual, faoliyat (operatsion) va refleksiv komponentlarning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida shakllanadigan murakkab ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuvlar esa ushbu komponentlarning kompleks rivojlanishini ta'minlashda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Fanlararo integratsiya, interfaol metodlar va hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida integrativ ta'lim muhitida o'quvchilarning intellektual salohiyati, motivatsion qiziqishi va refleksiv tafakkuri sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi hamda ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Integrativ yondashuvlar zamonaviy pedagogik amaliyotda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularni ta'lim jarayoniga keng joriy etish muhim didaktik ahamiyatga ega.

8. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin.
9. Littlewood, W. (2004). *Communicative Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
12. Zimnyaya, I. A. (2003). *Key Competencies and Competence Approach in Education*. Moscow: Pedagogika.
13. Xutorskoy, A. V. (2005). *Key Competences as a Component of Personality-Oriented Education*. Moscow: Institute of Education Development.
14. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). *Cooperative Learning: Improving University Instruction by Basing Practice on Validated Theory*. *Journal on Excellence in University Teaching*.
15. Tomlinson, B. (2011). *Materials Development in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press